

YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISH — UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI BARPO ETISH YO'LIDA

Mavlonov Umidjon Usmonovich

Toshkent shahar IIBB JTSB bo'lim bo'shlig'i, mayor

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada globallashuv jarayonida inson omilining, xususan, yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, ma'naviy kamoloti va intellektual salohiyatini rivojlantirish masalalari tahlil etilgan. Unda O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatini amalga oshirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ta'lim va tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati yoritilgan. Shuningdek, yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirish, ularni milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, halollik va ma'rifat ruhida tarbiyalashning dolzarbligi asoslab berilgan. Maqolada yoshlar tafakkurini to'g'ri shakllantirish, ularni zararli g'oyalardan himoya qilish, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, oila va ta'lim tizimining o'zaro aloqadorligi masalalari tahliliy yondashuv asosida ko'rib chiqilgan. Maqola yakunida farzand tarbiyasining oila, jamiyat va davlat taraqqiyotidagi o'rni, shuningdek, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish orqali Yangi O'zbekiston taraqqiyoti va Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo'lidagi ustuvor vazifalar haqida xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar siyosati, ta'lim va tarbiya, ma'naviyat, oila, milliy qadriyatlar, farzand tarbiyasi, ma'rifat, intellektual salohiyat, mafkuraviy immunitet, Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessans.

ENHANCING THE SPIRITUALITY OF YOUTH — TOWARDS BUILDING THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE

ABSTRACT

This article analyzes the development of the human factor in the context of globalization, particularly focusing on the education and upbringing of the younger generation, their spiritual and intellectual growth. It explores the implementation of youth policy in the Republic of Uzbekistan, the protection of youth rights and interests, and the essence of reforms in the fields of education and upbringing. Special attention is given to enhancing the moral and spiritual values of young people, fostering patriotism, honesty, enlightenment, and national identity. The paper also discusses the formation of youth worldview, protection from harmful ideologies, strengthening ideological immunity, and the interconnection between family and the

education system. In conclusion, the article emphasizes the fundamental role of child upbringing in the development of the family, society, and the state, as well as highlights the priorities for strengthening youth spirituality and building the foundations of the Third Renaissance in New Uzbekistan.

Keywords: youth policy, education and upbringing, spirituality, family, national values, child upbringing, enlightenment, intellectual potential, ideological immunity, New Uzbekistan, Third Renaissance.

ПОВЫШЕНИЕ ДУХОВНОСТИ МОЛОДЕЖИ — НА ПУТИ К СОЗДАНИЮ ФУНДАМЕНТА ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы развития человеческого фактора в условиях глобализации, в частности воспитания и образования молодого поколения, его духовного и интеллектуального потенциала. Анализируется реализация молодежной политики в Республике Узбекистан, защита прав и интересов молодежи, а также сущность реформ в сфере образования и воспитания. Особое внимание уделяется вопросам духовно-нравственного воспитания молодежи, приобщения ее к национальным ценностям, патриотизму, честности и просвещению. В статье также рассматриваются вопросы формирования мировоззрения молодежи, защиты от вредных идей, укрепления идеологического иммунитета и взаимосвязи семьи и системы образования. В заключение подчеркивается роль воспитания подрастающего поколения в развитии семьи, общества и государства, а также обозначаются приоритетные задачи в деле духовного возрождения молодежи и формирования основ Третьего Ренессанса в Новой Узбекистане.

Ключевые слова: молодежная политика, образование и воспитание, духовность, семья, национальные ценности, воспитание детей, просвещение, интеллектуальный потенциал, идеологический иммунитет, Новый Узбекистан, Третий Ренессанс.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborot oqimlari shiddat bilan kechayotgan davrda inson omili, uning ma'naviy barkamolligi va intellektual salohiyati har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon miqyosida raqobat asosan tabiiy resurslar yoki texnik imkoniyatlar emas, balki inson kapitali – ya'ni bilimli, tarbiyali va ma'naviy yetuk avlod orqali belgilanmoqda. Shu boisdan, jamiyat taraqqiyoti,

millatning kelajagi, davlat barqarorligi, eng avvalo, oilada shakllanadigan tarbiya tizimiga, ota-onaning farzandga bo'lgan munosabati va e'tiboriga bevosita bog'liqdir.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanib, bu borada O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shunday ta'kidlagan edi: "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz" [2].

Mamlakatimizda yoshlar siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri – milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash va uning bardavomligini ta'minlashda faol ishtirok etadigan avlodni voyaga yetkazishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratildi va vazifalar amalga oshirilmoqda. Uning maqsadi yurtimizda olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning, ijtimoiy sohani rivojlantirishning har tomonlama va jadal taraqqiyotini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratilayotganligidan, mamlakatni modernizatsiya qilish va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdir.

Shu boisdan ham yoshlar tafakkuri sofligini saqlash, ularning kayfiyatlari, orzu-umidlari, intilishlarining mazmun-mohiyatini o'rganish, ulardan tegishli xulosalar chiqarish o'ta dolzarb vazifadir.

ASOSIY QISM

Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan bo'lib, bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirilib bormoqda. Xususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarra oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Har yili Yangi O'zbekiston yoshlarini qo'llab-quvvatlash va ularga zarur bo'lgan barcha imkoniyatlarni yaratib berish maqsadida turli xil islohotlar amalga oshirilmoqda. Yurtimiz bo'ylab 2021 yil 30 iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan O'zbekiston yoshlar va talabalar forumi 6 millionga yaqin g'ayrati baland, intiluvchan o'g'il-qizlarimiz ishtirokida "Yangi O'zbekiston yoshlar, birlashaylik!"

shiori ostida o'tkazilgan festivallar barcha yoshlar uchun yetuklik va haqiqiy vatanparvarlik ko'rigi bo'ldi.

Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan umumxalq harakati saflarida yoshlarimizning qudratli to'lqin bo'lib maydonga chiqqanligi yuksak tahsinga sazovordir. Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, buyuk ajdodlarimiz erishgan olamshumul yutuqlar zamirida, avvalo, ona Vatanga, xalqqa xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam ekanini ko'ramiz. Masalan, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek singari ulug' allomalar, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi shoir va mutafakkirlar, Abdulla Avloniy, Fitrat, Abdulla Qodiriy ma'rifatparvar adib va olimlar mashhur ilmiy kashfiyotlarini, o'lmas badiiy asarlarini aynan ana shu yoshlik onlarida yaratganlarini hammamiz yaxshi bilamiz va bu bilan faxrlanamiz.

“Bizning tomirlarimizda ana shunday ulug' bobolarimizning qoni oqar ekan, ularning munosib vorislari bo'lish, ular kabi yuksak maqsadlar sari intilib yashash barchamizning ezgu burchimizdir”, degan edi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Yoshlar kuniga bag'ishlangan ma'ruzasida.

Haqiqatan ham biz davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etgan holda, mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo'lida katta qadamlar qo'ymoqdamiz. Shu bilan birga, Prezidentimiz o'zining har bir nutqida yoshlarning tarbiyasi, odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so'z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog'liq masala doimo uni o'ylantirib kelayotganligini alohida ta'kidlab, shunday degan edi: “Meni doimo o'ylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala bu – yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so'z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog'liq. Biz bu yo'nalishda katta ishlarni amalga oshiryapmiz.” [3]

Darhaqiqat, yoshlar tarbiyasi eng murakkab jarayonlardan biri hisoblanib, bu faoliyatda sansolarlik, o'zboshimchalik va ayniqsa loqaydlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki har qanday davlatning istiqboli shu mamlakatda voyaga yetayotgan yoshlarning ta'limi, tarbiyasi va intellektual salohiyatiga bog'liqdir.

NATIJALAR

Ma'lumki, ta'lim va tarbiya jarayonini yuksaltirish masalalari barcha davrlarda ham insoniyatni qiziqtirib kelgan. Vatanimiz tarixi haqidagi eng qadimiy manba bo'lmish “Avesto”da ham bolaning tarbiyasi haqida ko'plab qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Masalan: “Tarbiya hayotning eng muhim tirligagi (tayanchi) bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi o'qishni va so'ngra esa yozishni o'rganish bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin” [4;35].

Darhaqiqat, bundan 30 asr muqaddam aytilgan bu jumlar bugungi kunimiz uchun ham g'oyat ahamiyatli. Inson o'z hayot yo'lida tarbiya deb ataluvchi kitobning har bir sahifasini qunt bilan o'qib, o'rganmas ekan, har yangi sahifaning ochilishi unga ko'plab qiyinchiliklar tug'diraveradi. Buyuk yunon faylasufi Aristotel shunday ta'kidlagan edi: "Ota-ona bolani dunyoga keltirganliklari uchun emas, uni odobli, axloqli qilib tarbiyalab voyaga yetkazganliklari uchungina olqishga sazovor bo'ladilar." [5;32]

Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimda ham eng ko'p ishlatilgan so'z "ilm" so'zidir. Payg'ambarimiz hadislarida "Mingta oddiy omi odamdan bitta ilmi kishi foydalidir", degan ekan. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) aytadilar: "Alloh ilmni bandalarning qalbidan sug'urib olishlik bilan olib qo'ymaydi. Lekin olimlarni (vafot ettirish) bilan olib qo'yadi. Shunda birorta ham olim qolmagach, insonlar ilmsiz (odam)larni o'zlariga peshvo qilib oladilar. Ular insonlarga ilmlari bo'lmagan holda fatvo beradilar. Natijada o'zlari ham adashadi, o'zgalarni ham adashtiradi." [6]

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ham 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bilimsizlikdir" [7;11], deb to'g'ri gapni aytgan edi. Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

MUHOKAMA VA TAKLIFLAR

Ma'lumki, yoshlar har qanday jamiyatda yuksak ishonch va tayanch kuch hisoblanadi. Ularning ma'naviy, intellektual va jismoniy jihatdan yetuk bo'lib voyaga yetishi mamlakatning ertangi kuni, millatning istiqbolini belgilab beradi. Shu boisdan, bugungi globallashuv jarayonlarida yoshlarning tarbiyasi, dunyoqarashi va ma'naviy olamini mustahkamlash borasida bir qator muhim vazifalarni amalga oshirish zarur.

Birinchidan, oilada farzand tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish lozim. Chunki bola shaxs sifatida shakllanishining birinchi bosqichi aynan oilada kechadi. Ota-onaning o'zaro hurmati, mehr-muhabbati, farzand bilan muloqoti – uning keyingi hayotidagi ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ta'lim tizimida yoshlarning nafaqat bilim, balki ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ham alohida e'tibor berilishi zarur. Ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar, tarixiy meros, buyuk ajdodlarimizning ilmiy-ma'naviy merosi asosida tarbiya berish yoshlarni barkamol inson sifatida shakllantiradi.

Uchinchidan, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni sport, san'at, ixtirochilik, innovatsion faoliyat kabi yo'nalishlarga jalb etish zarur. Bu

nafaqat ularning salbiy illatlardan yiroq bo'lishiga, balki jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradi.

To'rtinchidan, ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish zarur. Bu borada oila, maktab, jamoatchilik tashkilotlari va mahalla tizimi o'zaro hamkorlikda ishlashi muhim.

Beshinchidan, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni milliy va jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qishga rag'batlantirish kerak. Kitob – inson tafakkurining kaliti, ma'naviyatning mezonidir.

Oltinchidan, yoshlarni vatanparvarlik, fidoyilik, halollik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash orqali ularda milliy g'urur va o'zlikni anglash tuyg'usini kuchaytirish lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, farzand tarbiyasi – oila, millat va jamiyat taraqqiyotining poydevoridir. Inson shaxs sifatida tayyor holda tug'ilmaydi, balki u oilaviy muhit, ta'lim-tarbiya, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shakllanadi. Shu bois ota-onaning farzand tarbiyasiga e'tibori – millat kelajagiga bo'lgan e'tibor, e'tiborsizlik esa ma'naviy tanazzulga sabab bo'lishi mumkin.

Oila insonning birinchi maktabi, insonparvarlik, axloq va ezgulik fazilatlari shakllanadigan muhitdir. Oiladagi sog'lom muhit, ota-onaning o'zaro hurmati, mehr-muhabbati, farzand bilan muloqoti uning kelajakdagi ma'naviy, intellektual va ijtimoiy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ta'lim tizimi va jamiyatdagi ijtimoiy muhit ham shaxs kamolotini belgilovchi muhim omillardandir.

Bugungi kunda davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlarga qaramay, ayrim oilalarda farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik kuzatilayotgani jiddiy tahlil va ilmiy yondashuvni talab etadi. Chunki inson kapitali – jamiyatning eng katta boyligi bo'lib, uni rivojlantirishning eng samarali yo'li – sog'lom, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashdir.

Shunday qilib, har bir oila o'z farzandining ta'limi va tarbiyasiga mas'ul ekanini chuqur anglab, uni barkamol inson sifatida voyaga yetkazishga intilishi zarur. Chunki sog'lom oila – sog'lom jamiyat va mustahkam davlatning asosi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. “Тараққиёт стратегияси” марказининг расмий сайти. 24 Июль 2019 й
2. Ўзбекистон миллий ахборот агентлигининг расмий сайти. 30.06.2021
3. Ўзбек педагогикаси антологияси, муаллифлар жамоаси “Ўқитувчи”1995 й 225 б.

4. Е.Саитов, Оталар сўзи-ақлининг кўзи. “Ўқитувчи”, Т; 1992 й.32 б.
5. Ислом маърифати: аслият ва талқин. 2017. 160 б.
6. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд.-Т: “Ўзбекистон” НМИУ, 2020.-115 б.
7. “Халқ сўзи”, 2019 йил 26 февраль.
8. Мирзиёев Ш. Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш мавзусидаги видеоселектор. 2021 йил 19 январь.
9. Aliyev, B. (2023). Ta’lim islohotlarining ma’naviyatdagi o’rni. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 1(9).
10. Aliyev, B. (2023). Shaxs ma’naviy-axloqiy tarbiyasi hamisha muhim [Spiritual and moral education of a person is always important, in Uzbek]. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 1(6).
11. Saifnazarov, I., & Umarjonov, S. (2022). State and religion relations in New Uzbekistan. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2, 414–424.
12. Алиев, Б. (2024). Янги Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(21), 8–16.
13. Алиев, Б., & Бойалиев, Ж. (2012). Глобаллашув шароитида диний ва дунёвий мафкураларининг ривожланиш хусусиятлари. Экономика и инновационные технологии, (2), 1-16.